

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YUK TASHISH QOIDALARI

Xakimov Mavlonbek Solijon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti "Transport loistikasi" kafedrasida

stajyor-o'qituvchisi. Telefon +998934192997

E-mail: mavlonbekxakimov17@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil yo'llari to'g'risida» va «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni avtomobil transportida tashishda harakat xavfsizligini ta'minlash hamda uni muvofiqlashtirish tartibini belgilaydi.*

Kalit so'zlar: *transport, tirkama, maxsus ruxsatnoma, mahalliy tashuvchi.*

Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil yo'llari to'g'risida» va «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni avtomobil transportida tashishda harakat xavfsizligini ta'minlash hamda uni muvofiqlashtirish tartibini belgilaydi [1].

Ushbu Qoidalarga quyidagi atamalar va tushunchalar kiritildi [2-4]:

avtopoyezd- tirkama (tirkamalar) ulangan mexanik transport vositasi;

katta hajmli yuk- o'lchamlari (balandligi, kengligi yoki uzunligi) ning birorta ko'rsatkichi ularni O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarida tashishda mazkur Qoidalarda bayon etilgan me'yoriy o'lchamlardan katta bo'lgan yuk;

katta hajmli transport vositasi- yuklangan yoki yuksiz holda o'lchamlari (balandligi, kengligi yoki uzunligi) ning birorta ko'rsatkichi ularning O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarida harakatlanishi uchun mazkur Qoidalarda bayon etilgan me'yoriy o'lchamlardan katta bo'lgan transport vositasi;

kuzatuvchi maxsus avtomobil- tashish yo'nalishida harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida (belgilangan tartibda to'lov asosida) yukli avtomobilni kuzatib boruvchi Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining patrul avtomobili;

mahalliy tashuvchi- qonunchilik asosida o'zi egalik qiladigan avtotransportda yuklarni tashishni amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi;

Maxsus avtomatlashtirilgan o'lchash vositasi- metrologik tekshirishdan o'tgan, foto va video suratga oluvchi, avtomatik rejimda ishlovchi, avtotransport vositalarining turi, rusumi, ro'yxatdan o'tgan davlat raqami belgisini, vazn va (yoki) gabarit parametrlarini qayd etuvchi sertifikatsiyalangan maxsus nazorat-o'lchash texnik uskunasini;

maxsus ruxsatnoma- O'zbekiston Respublikasi hududida kelishilgan aniq yo'nalish bo'yicha katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni tashishga huquq beruvchi hujjat. Maxsus ruxsatnoma avtomobil yo'lga amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda egalik qiluvchi yuridik shaxs tomonidan bir martali yoki ko'p martali tashuv uchun beriladi;

og'ir vaznli yuk- vazni ularni O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarida tashishda transport vositasining g'ildirak o'qiga tushadigan og'irligi mazkur Qoidalarda bayon etilgan me'yoriy miqdorlardan ortiq bo'lgan yuk;

tashishga ruxsat beruvchi tashkilot- katta hajmli va og'ir vaznli yuklar bilan avtotransport vositasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida harakatlanishga ruxsat beruvchi va harakatlanish yo'nalishini belgilovchi, yo'llarga egalik qiluvchi yuridik shaxs [5];

tashishni kelishuvchi tashkilot- katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni tashish yo'nalishidagi avtomobil yo'llariga, sun'iy inshootlarga yoki aloqa yo'llari (ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar, temir yo'l kesishmalari va boshqalar)ga egalik qiladigan yoki ular balansida bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek harakat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati;

yuk tashish- transport vositalarining yuk bilan harakatlanishi;

yuklarni avtotransportda xalqaro tashish- yuklarni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga yoki tashqaridan mamlakat hududiga tashish, shuningdek mamlakat hududidan tranzit tashish;

yuklarni avtotransportda mahalliy tashish- yuklarni O'zbekiston Respublikasining davlat chegaralaridan chiqmagan holda tashish;

himoya qiluvchi avtomobil- katta hajmli va og'ir vaznli yukni transport vositasida tashishni kuzatib borish va xavfsizligini ta'minlash uchun yukni tashuvchi yoki jo'natuvchi tomonidan ajratilgan avtomobil;

chet el tashuvchisi- qonunchilik asosida o'zi egalik qiladigan avtotransportda yuklarni tashishni amalga oshiradigan xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxs.

Mazkur Qoidalar katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni tashishda foydalaniladigan transport vositalarining texnik holati, jihozlanishi va qo'shimcha jihozlari hamda ularning harakatlanishida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy talablarni belgilaydi [6-9].

Mazkur Qoidalar hajmlari va og'irlik xususiyatlari bo'yicha amaldagi davlat standartlarida ko'rsatilgan me'yorlardan yuqori bo'lgan va yo'l harakati qoidalarida belgilangan o'lchamlardan katta bo'lgan transport vositalarida yuk tashishni tartibga soladi.

Ushbu qoidalarga 1 va 2-ilovalarda ko'rsatilgan o'lchamlarning birortasidan yuqori o'lchami bilan farq qiladigan transport vositasi (yuk bilan yoki yuksiz) katta hajmli hisoblanadi.

Avtotransport vositasining gabarit o'lchamlari haqiqiy ko'rsatkichlari chiziqli-o'lchash asbobi yordamida, to'liq massa va o'qqa tushadigan og'irligi esa turg'un yoki ko'chma

turdagi avtomobil tarozilari yordamida yoxud maxsus avtomatlashtirilgan o'lchash vositalari orqali harakatlanishi paytida aniqlanadi.

Chiziqli-o'lchash asbobi, shu jumladan, maxsus avtomatlashtirilgan o'lchash vositalari va avtomobil tarozilari soz holatda bo'lishi va sertifikatlariga va (yoki) metrologik tekshirish o'tkazilganligi to'g'risidagi davlat tamg'asiga ega bo'lishi kerak [10-12].

Avtotransport vositalarining gabarit va vazn parametrlarini aniqlashda o'lchash asbobining ikki foizli farq bilan ishlashiga yo'l qo'yiladi va u yuk tashuvchi foydasiga talqin qilinadi.

Agar tashiladigan yukning gabarit o'lchamlari va (yoki) uning vazni belgilangan ko'rsatkichlardan o'ta yuqori bo'lganligi yoxud avtomobil tarozilari, maxsus avtomatlashtirilgan o'lchash vositalarining yo'qligi (nosozligi) sababli O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida avtotransport vositasining umumiy massasini va o'qlarga tushadigan og'irligini aniqlashning imkoni bo'lmaganda, zarur bo'lgan parametrlar tovar-transport hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida aniqlanishi mumkin [13-15].

Katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni avtomobil transportida tashish, ularni bir necha qismlarga bo'lish va boshqa transport vositasi bilan tashish imkoni yoki maqsadga muvofiq bo'lmagan holdagina amalga oshiriladi.

Transport turini tanlash katta hajmli yoki og'ir vaznli uskuna yoki mahsulotni tayyorlash uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bosqichida amalga oshiriladi. Hisob-kitoblarda avtomobil yo'llari, sun'iy inshootlar, temir yo'l kesishmalari va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlar hisobga olinadi.

Yo'l harakati qoidalari va mazkur Qoidalar talablarini bajarmaslik natijasida yo'l va sun'iy inshootlarga zarar yetkazilsa, yuk tashishni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs va transport vositasining haydovchisi amaldagi qonunchilik bo'yicha javobgarlikka tortiladilar [16-19].

Yuk tashuvchi yoki yuk jo'natuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs (yoki ularning vakillari) maxsus ruxsatnoma va yo'nalish chizmasini olish uchun yo'lga egalik qiluvchi yuridik shaxslarga tashuvni amalga oshirishdan kamida 10 kun oldin transport vositasining rusumi, turi, davlat raqami belgilari va yukning o'lchamlari, haydovchi va yuk tashishga mas'ul bo'lgan xodimlarning ismi, familiyasi, otasining ismi ko'rsatilgan yozma xat bilan murojaat etishlari zarur.

Amaldagi me'yoriy hujjatlardagi talablarga muvofiq yo'lga egalik qiluvchi yuridik shaxslar tomonidan yuk tashishga maxsus ruxsatnoma va harakatlanish yo'nalishi aniq belgilangan yo'nalish chizmasi beriladi. Yuk tashuvchi yoki yuk jo'natuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs (yoki ularning vakillari) yo'nalish chizmasini Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlari bilan (15 va 16-bandlarga asosan) belgilangan tartibda kelishadi, so'ngra yo'nalish chizmasi va ruxsatnomadan bir nusxa qoldiradi [20-22].

Ruxsatnoma bir marta yuk tashish uchun beriladi. Bir xil turdagi yuklarni belgilangan qatnov bo'yicha tashishda ma'lum miqdordagi yuklarga yoki yo'lga egalik qiluvchi yuridik

shaxslar tomonidan belgilangan muddatga ruxsatnomalar berilishi mumkin (bu holda tashilayotgan yuk hajmi, aniq bir ob'jektning qurilish muddati va boshqalar hisobga olinadi).

Mazkur Qoidalar talablariga muvofiq harakatlanish yo'nalishi kelishib olinishi kerak bo'lgan tashkilotlarning aniq ro'yxati ruxsatnomani beruvchi yo'lga egalik qiluvchi yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatiladi.

Yuk tashishning harakat yo'nalishini kelishib olish avtomobil yo'llariga egalik qiluvchi yuridik shaxslar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Yuk tashish yo'nalishi bir yoki bir necha shahar hududidan o'tadigan bo'lsa, uni kelishish o'sha shaharlar hokimliklarining tegishli tashkilotlari bilan amalga oshiriladi.

Yukning balandligi yo'l sathidan 4,5 metrdan yuqori bo'lgan taqdirda shahar elektr transporti, elektr tarmog'i va boshqa aloqador tashkilotlar bilan kelishish shart.

Quyidagi hollarda temir yo'l organlari bilan kelishish amalga oshiriladi [23-25]:

yuk tashish yo'nalishi temir yo'l bilan bir sathda kesishganda, transport vositasining yuk bilan yoki yuksiz kengligi 5 metrdan, yo'l sathidan balandligi 4,5 metrdan, bir tirkamali (yarim tirkamali) avtopoyezdning uzunligi 20 metrdan, ikki va undan ortiq tirkamali avtopoyezdning uzunligi 24 metrdan ortiq bo'lsa, shuningdek transport vositasining umumiy og'irligi 52 tonnadan yuqori yoki harakatlanish tezligi soatiga 5 kilometrdan kam bo'lsa;

yuk tashish yo'nalishi temir yo'l ko'prigi, temir yo'l o'tkazgichi ostidan o'tganda, transport vositasining kengligi yuki bilan yoki yuksiz 5 metrdan ortiq, balandligi yo'l sathidan 4,35 metrdan ortiq bo'lsa.

Mazkur Qoidalarning 9, 10, 12 va 13-bandlarida ko'rsatilgan tegishli tashkilotlarga yuboriladigan kelishish xatlarida harakatlanish yo'nalishi, belgilangan sanasi va vaqti, transport vositasining yuk bilan eng kam burilish radiusi, g'ildirak yo'llarining va g'ildiraklarning soni, ularning joylashish chizmasi, o'qlarga tushadigan og'irlikning taqsimlanishi, umumiy og'irligi, yukli transport vositasining o'lchamlari, transport vositasining rusumi va turi ko'rsatiladi [26,27].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>

2. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>

3. Насиров И.З., Гаффаров М.Т. “Электронная система платежей в автобусах”// Естественнаучный журнал «Точная наука», выпуск № 117. www.idpluton.ru. Кемерово: «Техноконгресс»- 2021 с. 10-13.

4. Nasirov I.Z., Gaffarov M.T. Accession of the Republic of Uzbekistan to the Kyoto convention / Процветание науки. Научно-методический журнал- 2021. № 2 (2), Иваново: Умы Современности. DOI 10.24412/2713-0738-2021-22-41-57. с. 26-33.

5. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>

6. Закирович, Н. И. ., & Мирзаахмадович, Т. У. . (2023). ДВИГАТЕЛЛАРДА БЕНЗИН ВА ГАЗ ЁНИЛФИЛАРИНИНГ СИФАТЛИ ЁНИШИ ТАЪМИНЛАШ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 352–359. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5249>

7. Nasirov Ilham Zakirovich, Kuzibolaeva Dilnoza Tukhtasinovna, & Abbasov Saidolimkhon Zhaloliddin ugli. (2023). Analysis of Automobile Mufflers. Texas Journal of Engineering and Technology, 16, 37–40. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjet/article/view/3306>

8. Закирович, Н. И. ., Жалолiddин Ёғли, А. С. ., & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТХОДОВ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 345–351. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247>

9. Насиров Илхам Закирович, & Ганиев Хуршидбек Ёкубжон угли. (2023). БЕНЗИНЛИ ДВИГАТЕЛЛАРДА ЁНИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИ: WAYS TO IMPROVE THE COMBUSTION PROCESS IN PETROL ENGINES. Молодой специалист, 2(10), 3–9. Retrieved from <https://mspes.kz/index.php/ms/article/view/42>

10. Nasirov Ilham Zakirovich, Qo'zibolayeva Dilnoza To'xtasinovna, Abbasov Saydolimxon Jaloliddin o'g'li. Ichki yonuv dvigatellari so'ndirgichlaridan chiqadigan ishlangan gazlarni zararsizlantirish usullarini ishlab chiqish//TADQIQOTLAR jahon ilmiy – metodik jurnali. 21-son_1-2 to'plam_Sentabr-2023, 120-125 b.

11. Насиров Ильхам Закирович, Аббасов Саидолимхон Джалолiddин оглы и Козиболаева Дилноза Тахтасиновна. (2023). СНИЖЕНИЕ ВРЕДНОСТИ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ГАЗОВ В АТМОСФЕРЕ И В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ. ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА , 1 (1), 10–15. Получено с <https://esiconf.com/index.php/TOSROWW/article/view/264>.

12. Ильхам З. Насиров, Дилноза Т. Козиболаева и Саидолимхон З. Аббасов. (2023). Новые подходы к очистке выхлопных газов двигателей внутреннего сгорания. Техасский журнал техники и технологий , 21 , 46–49. Получено с <https://zienjournals.com/index.php/tjet/article/view/4113>.

13. Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich., Raqamli logistikaning o'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishida tutgan o'рни va ahamiyati. Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-texnika jurnali www.nammti.uz muallif 1 2021 566-572 bet.
14. Насиров И.З., Рахмонов Х.Н., Аббосов С.Ж. Результаты испытания электролизера // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2021. 6(87). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11860> (дата обращения: 03.12.2021).
15. Sobirova, T. A. (2022). YARIMO 'TKAZGICHLI LAZERLAR. Экономика и социум, (6-1 (97)), 1181-1187.
16. НАСИРОВ, И. З. ., & Аббаов С. Ж. . (2022). ВОДОРОД ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УСУЛЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАР. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 99–103. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/237>.
17. Насиров И.З., Аббосов С.Ж. ГЕНЕРАТОРЛАРНИНГ АВТОМОБИЛЬ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ // *Интернаука: электрон. научн. журн.* 2021. № 18(194). URL: <https://internauka.org/journal/science/internauka/194> (дата обращения: 25.11.2021).
18. Nurdinov M., G'anijonov M., Abdupattoyev B. CARGO ON INTERNATIONAL HIGHWAYS REST AREAS FOR CARS // *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences.* – 2022. – Т. 1. – №. 6. – S. 302-308.
19. Насиров Ильхам Закирович. (2022). МУСТАХИЛ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ШАКЛЛАРИ. Конференц-зона , 327–332. Получено с <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/867>.
20. САРИМСАҚОВ, А. М., & НАЗИРОВ, Н. Ж. Ў. ОРГАНИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШАХРИХАНСКОГО АВТОВОКЗАЛА С ИНФОРМАЦИОННЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ. *UNIVERSUM*, 52-54.
21. Саримсаков А.М., Хакимов М. ПРОЕКТИРОВАНИЕ СИСТЕМ ПОЖАРОТУШЕНИЯ, СКОРОСТНОГО ДВИЖЕНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ СКОРОЙ ПОМОЩИ НА ПЕРЕКРЕСТКАХ // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2022. 4(97). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13416> (дата обращения: 19.12.2022)
22. Гаффоров Мукхаммадзокир, & Акрмалиев Откир (2021). ДИГИТАЛИЗАТИОН ОФ СУСТОМС ДУТИЕС. *Бюллетень науки и практики*, 7 (4), 353-356.
23. Nazirov, N. (2023). SHAHRIXON TUMANIDA JOYLASHGAN AVTOSHOXBEKATDA ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARIDAN FOYDALANISH. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5), 5-9.
24. Nazirov Nodirbek. (2023). ANDIJON VILOYATI SHAHRIXON TUMANIDA JOYLASHGAN AVTOSHOXBEKATDAGI AVTOBUSLAR VA MIKROAVTOBUSLAR FAOLIYATIDA GPS-NAZORATI MARKAZINI TASHKIL ETISH ORQALI FAOLIYATINI TAKOLADI. TA'LIMDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY YECHLARI , 1 (1), 175-182. <https://esiconf.com/index.php/mpe/article/view/102> dan olindi

25. Nazirov, N. (2023). SHAHRIXON TUMANIDA JOYLASHGAN AVTOSHOXBEKATDA ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARIDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 5-9.

26. Murodjon o'g'li, E. B. (2023). YONILG 'I QUYISH SHOXOBCHALARINI FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH YO'LLARI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 211-217.

27. Esonboyev, B., & Saidahmedov, R. (2023). INTELLECTUAL DIAGNOSIS OF THE TECHNICAL STATE OF DIRECTIONAL TAXIS. International Conference On Higher Education Teaching, 1(1), 80–85. Retrieved.